

Oila Tushunchasining O‘Ziga Xos Xususiyatlari

Ozoda Nizomjon qizi Anorqulova¹

Annotatsiya: Ushbu maqolada oila tushunchasining inson hayotidagi ahamiyati, uning ijtimoiy, siyosiy, sotsiologik talqini haqida so‘z boradi. Buyuk allomalarning oila haqidagi qarashlari va bu borada bildirilgan fikrlari asosida jamiyatimizda ushbu masalaga qaratilayotgan e’tibor hamda amalga oshirilayotgan ishlar haqida fikr-mulohazalar bildiriladi.

Tayanch so‘zlar: oila, jamiyat, ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, “Oila” kodeksi, yillarning nomlanishi, badiiy adbaiyotda oila.

Oila tushunchasi insoniyatning asosiy, muhim, milliy, psixik va falsafiy masalalaridan sanaladi. U har qanday zamon va makonda ilmiy-madaniy meros, urf-odatlarni o‘z tarkibiga olgan, tarbiyaviy, ma’naviy-ma’rifiy, axloqiy, iqtisodiy-huquqiy hamda ruhiy munosabatlardan tarkib topadigan ijtimoiy butunlikdir. Kishi hayotida ikkita oilasi mavjud bo‘ladi: birinchisi o‘zi tug‘ilgan, voyaga yetgan, tarbiyalangan oilasi, ikkinchisi o‘zi turmush qurgan oilasi. Shunday ekan, oila – bu jamiyatning ajralmas qismi, uni tashkil etuvchi, shakllantiruvchi va tartibga soluvchi asosiy bo‘g‘inlaridan biridir. Shuningdek, oila deganda kishining ota-onasi va yaqin qarindoshlari bilan munosabati tushuniladi.

Azal-azaldan sharq dunyosida oilaviy munosabatlar, unga bo‘lgan mehr, sadoqat, intilish o‘ziga xos qadriyat sifatida ulug‘lanadi. Bu shunday makonki, doimo o‘ziga tortadi, unda iliqlik, birdamlik mujassam. Insonlar bu makonda kamol topadi, aksiologik qarashlarini shakllantiradi hamda kelajak hayoti uchun ham zamin yaratadi. Qadimda insonlar bir oila bo‘lib yashash tushunchasiga ega bo‘lmaganlar. Oilaviy birlik jamiyat, davlat rivojlanishi bilan mustahkamlanib borgan. “Odamlarning madaniy toifa ekanliklari, ya’ni tabiat hukmi ila bir qabila yoki qavm suvratida jam bo‘lib bir-birlariga yordam berib yashashlari ma’lum. Kimki ana shu tabiat qonunining doirasidan chiqsa, ya’ni jamiyatdan chetlashsa, shubhasiz, mahv va nobud bo‘lg‘ay. Tarixchi olimlarning fikriga qaraganda, odamlar xalq bo‘lishlaridan oldin jamoa bo‘lib yashash zarur ekanligini bilmaganlar. Binobarin, vahsiy hayvonlarga o‘xshab yolg‘iz, yakka -yakka bo‘lib yashaganlar. Shu bois ular tabiiy mushkulotlar ostida azob chekib, hayvonlar hujum laridan halok bo‘lganlar. Vaqt o‘tishi bilan odamlar jamoa bo‘lib yashash lozimligini tushundilar. Ularning birinchi jamoalari “oila”, ya’ni “ahli bayt” bo‘lgan. Ahli bayt jamoalari asta-sekin rivojlanib qavm va qabila jamoasiga aylangan”[2:5].

Badiiy adabiyot namoyandalarining ko‘plab asarlarida oila masalasiga alohida urg‘u beriladi. Tib sohasi asoschisi Abu Ali Ibn Sinoning “Tadbir ul-manzil” nomli kichik bo‘lsa-da, mazmunan boy bo‘lgan asari bu jihatdan xarakter kasb etadi. Unda oila, uning inson va jamiyat hayotidagi ahamiyati, oilaboshining vazifalari, uy-joyni idora etish shartlari, farzand tarbiyasida amal qilinishi lozim bo‘lgan jihatlar, oila rahbarining o‘ziga juft tanlashda e’tibor qaratishi lozim bo‘lgan masalalar muhokama qilingan.

Ibn sinoning ta’kidlashicha, ayol va erkak oilani tashkil qilar ekan, ular quyidagi sifatlarga ega bo‘lsa, oila mustahkam bo‘ladi: *Ayollar – aqli, dindor, sharm-hayoli, dono, ziyrak, turmush o‘rtog‘iga mehr-muhabbatli, serfarzand, tili uzun bo‘lmagan, itoatkor, erining oldi va orqasidan g‘iybat qilmaydigan, vazmin, viqorli, eriga qilgan xizmati bilan kibrlanmaydigan, tavozeli, har bir harakati yaxshilikka xizmat qiladigan, tejamkor, turmush o‘rtog‘ining g‘am-anduhini shirin so‘zi va go‘zal axloqi bilan ketkazadigan, tasalli beradigan bo‘lsa; erkaklar – kuchli, haybatli, ayolining qarshi chiqishiga yo‘l qo‘ymaydigan, o‘z juftiga mukammal hurmat bilan munosabatda bo‘ladigan, ayolining aqlini muhim ishlar bilan band qiladigan bo‘lsa.*

¹ O‘zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasи dotsenti Samarqand, O‘zbekiston



O‘zbek adabiyotining yorqin durdona asarlaridan biri bo‘lgan “Qutadg‘u bilig” asarida ham oilaviy masalalarga alohida to‘xtalib o‘tiladi. Yusuf Xos Hojib oilada sodir bo‘ladigan muammolarning sababi, uni bartaraf etish yo‘llari haqida to‘xtaladi. Oilada farzand tarbiyasi muhim masala ekanligiga urg‘u berib, moliyaviy ta‘minot masalalari ham e’tibordan chetda qolmaydi [4:17]. Mazkur asar g‘oyaviy jihatdan yosh-avlodga oilaga mehr-muhabbatli, sadoqatli, ota-onaga itoatkor va yaxshilik qiladigan shaxslar bo‘lib yetishishlari uchun turtki beradi.

Unsurulmaoniy Kaykovusning farzandiga nasihat ko‘rinishida yozilgan “Qobusnoma” asarida ham oilaviy munosabatlarda ota-onaning, farzandning roli masalalari haqida so‘z boradi. Mazkur asarda muallif oilani katta va kichik shaklga ajratadi va birini boylik, birini falokat deya ataydi: “O‘z atrofingga bekorchi nonxo‘rlarni ko‘paytirma, chunki kichikroq oila ham — boylik”[3:78]. Qolaversa, Kaykovus, ushbu asarida donishmand Abuzurjmehrning quyidagi jumlalarini keltiradi: : «To‘rt narsa og‘ir falokatduri: birinchisi — yomon qo‘shni; ikkinchisi — katta oila; uchinchisi — jizzaki xotin; to‘rtinchisi — muhtojlik»[3:79]. Demak, Kaykovusning fikricha, kichik oila baxt, katta oila falokat sifatida keltiriladi. Bir qarashda bu ta’rif anchayin qo‘poldek, milliy qadriyatlarimizga ziddek tuyuladi, lekin, bizningcha, kichik oila deyilganda muammolari ham oz bo‘lgan, iqtisodiy tomonidan ham inqirozga uchramagan, o‘z-o‘zini bemalol ta‘minlay oladigan oila nazarda tutilgan. Bilamizki, oila a’zolari qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularning muammolari-yu ehtiyojlari ham ko‘p bo‘ladi, bu esa oilaning iqtisodiy yetishmovchiligiga olib kelishi mumkin bo‘ladi. Balki shu sababli ota-onalar farzandlarini oilali qilgach, ularni navbat bilan alohida yashashlari uchun sharoit yaratish harakatini qilishar. Shunday bo‘lsa-da, o‘zbekona qadriyatlarimizga ko‘ra oilaviy hamjihatlik, serfarzandlilik, qarindosh-urug‘larning ko‘p bo‘lishi normal holat sanaladi.

Har qaysi zamonda oilani tashkil qilish masalasiga alohida e’tibor qaratilgan. Jumladan, buyuk sarkarda Amir Temur ham bu masalaga davlat siyosati darajasida qaraganligi o‘zi tomonidan yozilgan “Temur tuzuklari” asarida keltiriladi: “*O‘g‘illarim, nabiralarim va yaqinlarimni uylantirmoq tashvishida kelin izlamoqqa e’tibor berdim. Bu ishni davlat yumushlari bilan teng ko‘rdim. Kelin bo‘lmishning nasl-nasabini, yetti pushtini surishtirdim. Xos odamlar orqali sog‘liq-salomatligini, jismonan kamolatini aniqladim. Kelin bo‘lmish nasl-nasabasi, odob-axloqi, sog‘lom va baquvvatligi bilan barcha qusurlardan xoli bo‘lsagina el-yurtga katta to‘y-tomosha berib, kelin tushurdim*” [5:58]. Haqiqatdan ham oilani tashkil qiluvchilar har tomonlama bir-biriga munosib bo‘lishi, jismonan sog‘lom, ma’nан yetuk bo‘lishi kelajak avlodninga qanday bo‘lishiga bevosita bog‘liq jarayon hisoblanadi.

Inson dunyoga kelar ekan, ilk tarbiyasini o‘z oilasidan oladi. Bunda oilaviy muhitning ahamiyati cheksiz. Xuddi shu masalalarni singdirgan holda Abdurauf Fitrat ham 1916-yilda “Oila” deb nomlangan falsafiy ruhdagi asarini yozadi. Mazkur asarda oilani ijtimoiy birlik sifatida avlod, fikriy va axloqiy tarbiya tiplariga ajratgan holda ma’lumotlar beriladi: *Oiladagi eng og‘ir vazifa bola tug‘ilgandan keyingi farzand tarbiyasidir. Farzand tarbiyasi aslida ikki kalimadan iborat. Shuning uchun ham nazaringizda juda mayda muammodek ko‘rinadi. Lekin dono odamlar biladilarki, bani Odamning siyosiy, diniy, ijtimoiy inqiloblarining asosi ana shu ikki so‘z — “bola tarbiyasi” dan iborat birikmaga bog‘liq. Bu xalqning harakat qilishi, davlatmand bo‘lishi, baxtli bo‘lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo‘lishi, zaif bo‘lib xorlikka tushishi, faqirlik jomasini kiyib, baxtsizlik yukini tortib e’tibordan qolishi, o‘zgalarga tobe, qul va asir bo‘lishi, bolalikdan o‘z ota-onalaridan oлgan tarbiyalariga bog‘liq* [2:70]. Oradan bir asrdan uzoq vaqt o‘tgan bo‘lsa-da, ushbu masalalar hamon dolzarbligicha qolmoqida.

Bilamizki, ma’rifatparvar adiblar tomonidan milliy o‘zlikni anglash, hurriyatga erishish, uyg‘oq qalb sohibi bo‘lish, diniy va dunyoviy ilmlarni egallab, jahon tamadduniga qadam tashlash maqsadlariga intilish yuqori bo‘lgan. Ularning g‘oyalari asosini tarbiya, odob-axloqli bo‘lish tashkil etgan. Munavvarqori Abdurashidxonov tomonidan yozilgan “Oila a’zolari” nomli dasrligida ham yuqorida keltirilgan g‘oyalalar o‘z aksini topgan. Mazkur darslikda inson o‘z yaqinlariga, ota-ona, aka-ukalariga yuksak ehtirom ko‘rsatishi, mehrli bo‘lishi uqtiriladi. Darslikda keltirilgan she’rdan buni anglash qiyin emas:

Kishining bor ersa ota-onasi



G‘animatdir unga olarning rizosi.

Xudoni qoshida qabul ekandir

Ota va onaning bolaga duosi. (Munavvarqori)

Shu maqsadlar asosida bugungi kunda mamlakatimizda ham oila va uning farovonligi borasida samarali islohotlar olib borilmoqda. Mamlakatimiz prezidenti Sh.M.Mirziyoyev intervylularining birida inson uchun eng muhim narsa bu oila ekanligini aohida ta‘kidlab, shunday deydi: “Odam baxtliman deyishga qanchalik haqqi bor? Agar oilang bilan sen baxtli bo‘lsang, baxtliman deyishga haqqing bor. Faqat oilam emas, xalqim baxtli bo‘lsa men o‘zimni baxtli deb bilaman” [1]. Darhaqiqat, oilaning tinchligi, farovonligi, mustahkamligi xalning, mamlakatning barqarorligiga zamindir.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng milliy qadriyatlarni tiklash, ularga sodiq qolish, asrabavaylash maqsadida ko‘lamli ishlar olib borildi. Oila institutini shakllantirish va unga e’tiborning yuksak namunasi sifatida yillarga “Oila”, “Ona va bola”, “Sog‘lom avlod”, “Ayollar”, “Yoshlar”, “Barkamol avlod”, “Sog‘lom ona va bola”, “Qariyalarni qadrlash yili” kabi nomlarning berilishini keltirishimiz mumkin. Shunga asosan, oila inson uchun eng sevimli makonligini anglagan holda, unga bo‘lgan munosabatni tubdan o‘zgartirish, uni jamiyat tomonidan ijtimoiy himoyalash, e’zozlash, qo‘llab-quvvatlash bugungi va ertangi kun uchun muhim ekanligini his etish muhimligini his qilish shart.

Oila qadriyatlar kamol topadigan makon ekan, ushbu masalaga ham davlat siyosati darajasida e’tibor qaratildi. Buning birgina isboti sifatida hukumatimiz tomonidan qabul qilingan qaror va farmonlar hamda ularning ijrosiga to‘xtalish joiz. Jumladan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 1-mart sanasida “Oila va xotin-qizlar bilan ishlash, mahalla va nuroniylarni qo‘llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” 81-son farmoni, 2023-yil 21-dekabrdagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-401-son qarori, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2024-yil 3-apreldagi “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar belgilanganligi munosabati bilan o‘zbekiston respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o‘zgartirish va qo‘srimchalar kiritish to‘g‘risida” 183-son qarori va 2023-yil 2-sentabrdagi “Ibratli oila” ko‘krak nishoni to‘g‘risidagi nizomni tasdiqlash haqida”gi 437-son qarorlari qabul qilindi va oila institutini shakllantirish, uni mustahkamlash borasidagi tegishli qonun-qoidalar belgilab qo‘yildi.

Birgina “Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” gi PQ-401-son qarorining o‘zida jamiyatda xotin-qizlarning rolini oshirish, gender tenglik va oila masalalari bo‘yicha respublika komissiyasi hamda Vazirlar Mahkamasini barcha bo‘g‘indagi har bir davlat organi, tashkiloti va korxonasida, shu jumladan mahalliy ijob etuvchi hokimiyat organi, sud tizimida va huquqni muhofaza qiluvchi organlarda boshqaruv xodimlari orasidagi xotin-qizlarning ulushini 2030-yilga qadar 30 foizga yetkazish talabi davlat korxonalarining ijob organlari, shu jumladan direktorlar kengashi va kuzatuv kengashlarining tarkibini shakllantirishda ham tatbiq etilishini ta‘minlashga oid qoidalar, istiqbolli rejalar tuzilgan [9]. Jamiyatda ayoning roli oshaverar ekan, uning qadri-qimmati ham ortib boraveradi. Ayollar baxtli jamiyat yuksaladi, shuni teran anglagan holda mazkur qarorlarda ehtiyojmand oilalar, ularda yashovchi boquvchisini yo‘qtgan, ko‘p farzandli, ijtimoiy himoyaga ega bo‘lgan qizlar uchun turli xil imtiyozlarning yaratilayotganligi ham quvonarli, axir ayollar ojiz va nozik xilqat vakilalari sifatida doimo himoyaga, e’tibor hamda e’tirofga loyiqdirlar, oilaning mustahkamligi ham ularning xotirjamligi, sog‘lomligi bilan bog‘liq.

Shuni alohida qayd etish lozimki, 1998-yil 1-sentabrdada O‘zbekiston Respublikasining “Oila kodeksi” qabul qilingan. Mazkur kodeks 30 bob 238 moddadan tashkil topgan. Dastlabki moddada ushbu kodeksning ahamiyati va vazifasi haqida belgilab qo‘yilgan. Shunga muvofiq, oila to‘g‘risidagi qonunchilikning vazifalari quyidagilardan iborat: *oilani mustahkamlash, oilaviy munosabatlarni o‘zaro muhabbat, ishonch va hurmat, hamjihatlik, bir-biriga yordam berish hamda oila oldida uning barcha a’zolarining mas’ulligi hissi asosida qurish, biron-bir shaxsning oila masalalariga o‘zboshimchalik bilan aralashishiga yo‘l qo‘ymaslik, oila a’zolari o‘z huquqlarini to‘sqiniksiz amalgaloshirishini hamda bu huquqlarning himoya qilinishini ta‘minlash* (1-modda).



Oila kodeksida ayollar masalasiga alohida ahamiyat qaratiladi, jumladan 2-moddada oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqli ekanligi quyidagi shaklda belgilab qo‘yilgan: *Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o‘zaro kelishuv yo‘li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g‘amxo‘rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a‘zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi [7].*

Kodeks har tomonlama mukammal tuzilgan bo‘lib, unda ota-onalik va farzandlik huquqlari, imtiyozlari, mulky va shaxsiy-nomulkiy munosabatlari, oilaviy munosabatlarda mahalliy urf-odat va an’analarning qo‘llanilishi, nikoh tuzish tartibi, er-xotinning shaxsiy va mulkiy huquq-majburiyatlar, nikohning tugatilishi, qon-qarindoshlik munosabatlari, bolalar nasabini belgilash, voyaga yetmagan bolalarning huquq va majburiyatlar, aliment majburiyatlar, ota-onalik qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bolalarning joylashish tartibi, vasiylik, homiylik, farzandlikka olish tartib-qoidalari, nikohni, farzandli bo‘lishni, ajralishni, o‘limni qayd etish bo‘yicha ko‘rsatmalar, qolaversa chet el fuqarolari va fuqaroligi bo‘limgan shaxslar ishtirokidagi oilaviy munosabatlarni tartibga solishga oid qoidalari qat’iyan belgilab qo‘yilgan.

Yuqoridagilardan tashqari, jamiyat taraqqiyotida, ma’naviy barkamol va jismonan sog‘lom avlodni tarbiyalashda oilaning o‘rni muhim ekanligini hisobga olib, oilaga taalluqli boy va sermazmun milliy an’analarni avaylab-asrash, ularni umumbashariy qadriyatlar bilan uyg‘unlashtirish, oila va nikohning muqaddasligini yosh avlod ongiga chuqur singdirish yo‘li bilan oilalarning mustahkamligini ta’minalash, oila a‘zolarining huquqiy savodxonliklarini oshirish muammolarini ilmiy o‘rganishni va fuqarolarga bu masalalarda amaliy yordam berishni muvofiqlashtirish maqsadida 1998-yilning 2-fevral sanasida «Oila» Respublika ilmiy-amaliy markazini tuzish to‘g‘risida qaror qabul qildi [8]. Markaz O‘zbekiston Respublikasi Xotin-qizlar qo‘mitasi huzurida Toshkent Davlat universiteti va Toshkent Davlat pedagogika universitetining oila muammolarini o‘rganish bo‘yicha laboratoriyalari negizida tuzilgan. «Oila» markazi o‘z faoliyati davomida milliy an’analarni asrash, targ‘ib qilish, qadriyatlarning oilaviy tarbiya asosi sifatida belgilash, oilada uchrab turadigan psixologik, ijtimoiy, etnopedagogik, etnopsixologik muammolarni o‘rganish va hal qilish, oilani rejalashtirish, yoshlanri oilaviy hayotga tayyorlash, bu borada o‘quv kurslarini tashkil etish, oilaning huquqiy savodxonligini ohsirish, muhofaza qilish, shuningdek, yuqorida keltirilgan masalaalrga oida o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar, risolalar chop etish va ku kabi ko‘plab maqsadlarni amalga oshirishga qaratilgan.

Xulosa qilib aytsak, “oila” konsepti tilga olinganda inson tafakkurida ijobjiy mazmun kasb etadigan tushunchalar paydo bo‘ladi. Oila insoniyatning eng sevimli, eng qadrli va doimo talpinadigan, panoh topadigan, bir so‘z bilan aytganda, muqaddas makonidir. Kishi umrining asosoiy qismini uning ehtiyoji, ta’minati, farovonligi uchun sarflaydi.

Foydalilanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

- Shavkat Mirziyoyev— oila va baxt haqida – O‘zbekiston yangiliklari – Gazeta.uz. PQ-401-сон 21.12.2023. Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (lex.uz)
- Abdurauf F. Oila yoki oila boshqarish tartiblari / A. Fitrat; tarjimon va izohlar muallifi Sh. Vohidov; mas’ul maharrir H. Boltaboyev. — Toshkent: Cho‘lpon nomidagi NMIU, 2013 — 144 b. 5-bet.
- Кайковус. Қобуснома / Форсчадан Мухаммад Ризо Оғажий таржимаси, тўлдирилган иккинчи нашри. — Тошкент: истиқлол, 1994. — 176 . 78-бет.
- Yusuf Xos Hojib. Qutadg‘u bilig. — Toshkent, 1990. 17-bet.
- Amir Temur o‘gitlari,— T.,1992, 58-bet.
- 2023-11-03-07-25-24_e7823bb4eea9ad6631827b72aad19576.pdf (renessans-edu.uz)
- 30.04.1998.Ўзбекистон Республикасининг Оила кодекси (lex.uz)



8. 54-соҳ 02.02.1998.Respublika “Oila” ilmiy-amaliy markazini tashkil etish to‘g‘risida (lex.uz)
9. PQ-401-соҳ 21.12.2023. Oilalarni mustahkamlash va xotin-qizlarning faolligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida (lex.uz)

